

O'zbekiston gender tenglikni ta'minlash istiqbollari

Baxtiyar Djabbarovich Avazov

O'zbekistan Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi

Annotatsiya: Mazkur maqola Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash va bu boradagi siyosatni tahlil etadi.

Kalit so'zlar: gender, tenglik, rezolyutsiya, deklaratsiya, CEDAW, tazyiq, zo'ravonlik, agressiya, latent, konvensiya, profilaktika

Prospects for ensuring gender equality in Uzbekistan

Bakhtiyar Djabbarovich Avazov

Specialized Training Center of the National Guard of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the provision of gender equality and the policy in this regard in the modernizing Uzbekistan.

Keywords: gender, equality, resolution, declaration, CEDAW, oppression, violence, aggression, latent, convention, prevention

Kirish. Avvalo globallashib borayotgan dunyoda jinslar tengligi va ayollarning tinchlikparvarlik jarayonlarida ishtirok etishi masalasi, mudofaa strategiyalarining samaradorligini oshirish, inson huquqlarini hurmat qilish va barqaror tinchlikka erishish uchun muhimdir. Yangilanayotgan O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari profilaktikasi bartaraf etish bo'yicha xalqaro tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlaydi, ayollarni qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga undaydi va gender tengsizligini bartaraf etishga qaratilgan tizimli islohotlarni amalga oshiradi. Gender tenglik (erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik) - bu oilada erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi - bu patriarxal tizimdan arkoni ijtimoiy munosabatlarning arkoni bosqichi.¹

Asosiy qism

Ma'lumki, BMT tashkiloti 1945-yil 24-oktabrda tashkil etilgan Xalqaro bosh tashkilot sanaladi. Ayni ushbu sanada hamjamiyat tushunchalari paydo bo'lgan kun sifatida namoyon bo'ladi. Negaki ushbu tashkilot insoniyat oldidagi barcha katastrofa,

Madaminov Mirsaid Ulug'bek O'g'li - Gender Tengligi Tushunchasi, Uning Mohiyati Va Ilmiy Tahlili, maqola, 2024 yil, Andijon.

inqiroz, aholi turmush tarzi, migratsiya, ijtimoiy ta'minot, iqlim o'zgarishi, nogironligi bor shaxslar va keksalar, yoshlar va bolalar va turli masala va aholi qatlamlarini himoyalash qatorida "gender" masalalarini ham himoya qiladi. Bu uning maqsadlarida ("Barqaror rivojlanish maqsadlari") to'la namoyon bo'ladi va qo'shimchasiga qator konvensiya, deklaratsiya, rezolyutsiyalari ushbu jihatlarda huquqiy asoslarni to'laqonli yaratgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayollar va bolalar himoya mehrga muhtoj aholi qatlami bo'lib hisoblanishadi. Gender inglizchadan tarjima qilinganda "jinsga oid" degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki, jamiyatimizda genderga oid ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, lekin shunday bo'lsada bir statistikaga urg'u beramizki, dunyoda har 6 ayoldan 1 tasi zo'rvonlikning qaysidir ko'rinishi (maishiy, iqtisodiy, ijtimoiy, jinsiy, jismoniy) bilan azoblanib kelmoqda, bunga asosiy sabablardan qilib, oilaviy, maishiy kelishmovchiliklar va jamiyatdagi mavjud stereotiplar misol qilishimiz mumkin. Achinarlisi, ularning ko'rinishi ko'p hollarda "latent", ya'ni "yashirin" xususiyatga ega bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek jamiyatida bugun global ahamiyatga ega bo'lgan gender masalalari konstitutsion xususiyatga egadir. Ya'ni, 58 - moddada: "Xotin - qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda teng huquq va imkoniyatlarga ega ekanliklarini" ifodalaydi.

Feminizm bu ijtimoiy harakatki, unda ayollar huquqlarini himoya qilinishi jamiyat a'zosi ekanligi qoidasi ilgari surilishi bilan xarakterlanadi. Bunda insoniyatning XVIII asr Yevropa va G'arbiy Yevropada Meri Uolstounkraftning "Ayol huquqlarini himoya qilish" (1792) asari muhim ahamiyat kasb etgan. Bu asarda ayollarning ta'lim olishi va teng huquqli ekanliklari ahamiyat kasb etgan. Bu ma'lumotlar bilan bir qatorda uning 3 to'liqini borligi e'tiborliki, undan faqatgina ayollarga jamiki yaxshilik va huquqiy, madaniy erkinlarni bera olgan desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Bugungi kunda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka uchrashining asosiy sabablaridan:

1. Ayollarning tabiatan himoyaga muhtoj bo'lishi omili;
2. Ayollarga nisbatan jamiyatdagi mavjud stigma va stereotiplarning mavjudligi;
3. Ayollar ijtimoiy harakatiga to'siqlarning mavjudligi;
4. Erkaklarning bu borada beparvoligi yoki haddan ortiq qattiq nazoratining mavjudligi;
5. Gender tafovutlarning keng doira, mehnat, ish va kasbda namoyon bo'lishi kabilar.

Bugungi kunda Global hisobotga ko'ra dunyoning gender tenglikka erishishi uchun 95 yil borligi, ta'lim sohasida esa 12 yil borligi ayon bo'lmoqda.

L.Morgan, F.Engels, G.Ploss, Ye.Teylor kabi olimlar asarlarida gender tenglik masalalari ilgari surilgan.

Bundan tashqari Xalqaro doirada CEDAW 1979-yil 18-dekabrda Nyu-Yorkda 1981-yil 3-sentabrda xalqaro shartnoma sifatida kuchga kirgan “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi” konventsiyaning o‘rni ahamiyatlidir. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konventsiya markaziy va eng keng qamrovli hujjat hisoblanadi. Konventsiya o‘zining muqaddimasida “ayollarga nisbatan keng ko‘lamli kamsitishlar davom etayotganini” aniq tan oladi. Ushbu konventsiya 30 moddadan iborat. Konventsiyaning 1-moddasida ta’riflanganidek, kamsitish "jinsiy asosga ko‘ra siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik yoki boshqa har qanday sohada qo‘llaniladigan har qanday farqlash, istisno qilish yoki cheklash" deb tushuniladi. Konventsiya ishtirokchi davlatlardan “ayollarning erkaklar bilan tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirish va ulardan foydalanishni kafolatlash maqsadida ularning to‘liq rivojlanishi va ishtirokini ta’minlash uchun barcha tegishli choralarni, shu jumladan qonunchilikni” ko‘rishni talab qilish orqali tenglik tamoyilini ijobiy tasdiqlaydi (3-modda). Konventsiyaning 7-moddasida ayollarga ovoz berish, davlat lavozimlarini egallash va davlat funksiyalarini bajarish huquqlari kafolatlangan. CEDAW - Ayollarga nisbatan kamsitishga barham berish qo‘mitasi hisoblanib, bugun mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatning eng asosiy jabhalari - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida ayollar nufuzi, har bir sohada faolligi ortishiga, opa-singillarimizning jamiyat hayotidagi ishtiroki yil sayin kengayishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
2. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son;
3. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son;
4. 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.